



## TOSHKENT VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI INVESTITSIYA VA QURILISH STATISTIKASI BO'LIMI

2019 YILNING YANVAR-AVGUST  
OYLARIDA QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari  
hajmi -  
**2558,2 mlrd.so'm**

Yirik pudrat  
tashkilotlari ulushi  
**-22,1 %**

Kichik tashkilotlar  
va mikrofirmalar  
ulushi -  
**54,4 %**

Norasmiy sektor  
ulushi –  
**23,5 %**

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent viloyatida jami qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 134,1 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 565,1 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 22,1% hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 120,9% ni


tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,4% yoki 1391,0 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 136,7%ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 23,5 % yoki 602,1 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 142,4 %ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari	<ul style="list-style-type: none"><li>• hajmi - 565,1 mlrd.so'm</li><li>• o'sish sur'ati - 120,9 %</li></ul>
Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar	<ul style="list-style-type: none"><li>• hajmi - 1391,0 mlrd.so'm</li><li>• o'sish sur'ati - 136,7 %</li></ul>
Norasmiy sektor	<ul style="list-style-type: none"><li>• hajmi - 602,1 mlrd.so'm</li><li>• o'sish sur'ati - 142,4%</li></ul>



## IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 1845,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 741,8 mlrd so'mga ko'paygan.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 316,8 mlrd .so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 93,0mlrd. so'mga ko'paygan.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 395,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yil davriga nisbatan 114,9 mlrd. so'mga ko'paygan.



## Yanvar- avgust oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




## Yanvar- avgust oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 23,8 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,1 % ga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 43,6 % va norasmiy sektorning ulushi 32,6 % ni (2,9 % ga ko'paydi) tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 32,1 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,6% ga kamaydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 67,9 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,6 % ga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 6,3 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,2 % ga ko'paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga 93,7% to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,2 % punktga kamaydi.



### 2019 yil yanvar- avgust oylarida hududlar bo'yicha qurilish ishlari



Qurilish ishlari hajmida hududlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Zangiota tumani, yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar- avgust oyida 332,9 mlrd.so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 137,2 %ga bajarildi.


	<b>Jami</b>		
	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd.so'm)	2018 yil yanvar- avgust ga nisbatan % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>2558,2</b>	<b>134,1</b>	<b>100,0</b>
Nurafshon shahri	100,7	130,6	3,9
Olmaliq shahri	144,1	119,2	5,6
Angren shahri	122,8	139,2	4,8
Bekobod shahri	126,5	130,5	4,9
Ohangaron shahri	84,5	137,9	3,3
Chirchiq shahri	135,6	138,8	5,3
Yangiyo'l shahri	63,5	137,5	2,5
Oqqo'rg'on tumani	66,1	128,1	2,6
Ohangaron tumani	64,8	124,8	2,5
Bekobod tumani	81,4	130,4	3,2
Bo'stonliq tumani	135,5	127,9	5,3
Bo'ka tumani	55,4	127,4	2,2
Quyichirchiq tumani	49,2	149,6	1,9
Zangiota tumani	332,9	137,2	13,1
Yuqorichirchiq tumani	177,7	134,8	6,9
Qibray tumani	202,3	159,8	7,9
Parkent tumani	139,6	124,3	5,5
Piskent tumani	36,5	128,2	1,4
O'rtachirchiq tumani	129,2	124,7	5,0
Chinoz tumani	75,7	141,3	3,0
Yangiyo'l tumani	85,7	151,6	3,4
Toshkent tumani	148,5	128,6	5,8


Shuningdek, qurilish ishlari hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Qibray tumanida (202,3 mlrd. so'm yoki 159,8 %), Yuqorichirchiq tumanida (177,7 mlrd. so'm yoki 134,8 %), Toshkent tumanida (148,5 mlrd. so'm yoki 128,6 %) va Bo'stonliq tumanida (135,5 mlrd. so'm yoki 127,9 %) bajarilgan.


Qurilish ishlari hajmining eng past darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Piskent tumani (36,5 mlrd. so'm yoki 128,2 %), Quyichirchiq tumani (49,2 mlrd. so'm yoki 149,6 %) va Bo'ka tumani (55,4 mlrd. so'm yoki 127,4 %) qurilish-pudrat ishlari amalga oshirildi;





**2019 yilning yanvar- avgust oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)**



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Zangiota tumanida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 13,1 %ini, Qibray tumanida 7,9 %ni va Yuqorichirchiq tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 6,9 %ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Piskent tumanda bu ko`rsatkich eng past 1,4 %ni tashkil etdi. Yangiyo'l shahri 2,5 %ni va Quyichirchiq tumanida 1,9 %dan tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



**“Investitsiya va qurilish statistikasi” bo’limi**

**Nashirga mas’ul: B. Djavliyev**

**Tel.: 230-86-70, (71)**